


QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

*2021- yil 1- fevral holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1-fevral holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2021- yil yanvar oyida)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021- yil yanvar oyida, birlikda)



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2021- yil 1- fevral holatiga)



2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 2 938 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 125,0 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 126,0% ga (jami sanoatdagi ulushi 91,0 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 112,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 6,3 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 130,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 120,0% ga (jami sanoatdagi ulushi 1,4 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, yillar kesimida (birlikda)




2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 333 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,5 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 102,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 60,4 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 114,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 8,9 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 113,7 % ga (jami qurilishdagi ulushi 30,6 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 5 678 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 132,7 % ga oshdi. Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 138,0 % ga (jami savdodagi ulushi 70,4 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 114,2% ga (jami savdodagi ulushi 21,3 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 145,4 % ga (jami savdodagi ulushi 8,3 %) o'sishidir.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

8

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

392



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

13



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

9



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



88

yashash bo'yicha xizmatlar



1 197

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2021-yil 1-fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 285 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,2 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 111,4 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,1 %), yashash bo'yicha xizmatlarning-108,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,8 %) o'sishidir.




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni (1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 1 742 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 663 taga yoki 161,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 632 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 590 taga yoki 156,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 41 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7 taga yoki 120,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 13 609 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 811 taga yoki 126,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 126 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 588 taga yoki 125,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 256 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9 taga yoki 103,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra 169 tani tashkil etib, ulardan 165 tasi yoki 97,6 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 5 taga yoki 103,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar oyida 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan tijorat korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2021- yil yanvar oyida, birlikda)

	2020- yil	2021- yil
Jami	307	321
<i>shu jumladan:</i>		
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	51	90
Sanoat	43	46
Qurilish	48	27
Savdo	103	112
Tashish va saqlash	15	6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	19	8
Axborot va aloqa	7	10
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	4
Boshqa turlar	16	18

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

12




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, yillar kesimida

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	66	77	124	160	165
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	14	15	34	39	46
Sanoat	39	45	59	80	80
Qurilish	3	3	3	6	6
Savdo	6	9	18	21	20
Tashish va saqlash			1	2	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2	2	3	3	3
Axborot va aloqa					
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	1	2	3	3
Boshqa turlar	1	2	4	6	6

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)


14

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Qoraqalpog'iston Respublikasi	165	92	73
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	6	2	4
Beruniy	10	3	7
Bo'zatov	2	1	1
Qorao'zak	10	7	3
Kegeyli	7	5	2
Qo'ng'iro't	6	4	2
Qonliko'l	6	3	3
Mo'ynoq	29	20	9
Nukus	10	6	4
Taxiatosh	11	3	8
Taxtako'pir	6	4	2
To'rtko'l	5	4	1
Xo'jayli	4	1	3
Chimboy	5	3	2
Shumanay	5	2	3
Ellikqal'a	4	3	1
Nukus sh.	39	21	18

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 39 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 23,6 %), Mo'ynoq 29 ta (17,6 %), Taxiatosh 11 ta (6,7 %), Qorao'zak, Nukus tumani va Beruniy 10 tadan (6,1 %), Kegeyli tumanida 7 tani (4,2 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)





2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Nukus shahri (28,4 %), To'rtko'l (10,3 %), Beruniy (8,3 %), Amudaryo (7,3 %), Ellikqal'a (6,2 %), Qo'ng'iro't (5,8 %), Xo'jayli (5,0 %), Nukus (4,6 %), Chimboy (3,9 %), Taxiatosh (3,3 %), Qorao'zak (2,9 %), Kegeyli (2,8 %), Qonliko'l (2,6 %), Mo'ynoq (2,6 %), Shumanay (2,6 %), Taxtako'pir (2,1 %) va Bo'zatov (1,3 %) tumanlari hissalari to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar oyida, birlikda)

2021- yilning yanvar oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Nukus shahrida (25,0 %), To'rtko'l (10,2 %), Beruniy (7,0 %), Ellikqal'a (9,3 %), Amudaryo (5,2 %), Qo'ng'iro't (4,4 %), Xo'jayli (7,0 %), Nukus (7,9 %), Taxiatosh (4,1 %), Mo'ynoq (2,9 %), Taxtako'pir (0,9 %), Chimboy (4,9 %), Bo'zatov (4,1 %), Shumanay (1,4 %), Kegeyli (2,6 %), Qonliko'l (1,7 %) va Qorao'zak (1,4 %) tumanlari ulushiga tegishli.





Tumanlar kesimida har 1000 aholiga to'g'ri keladigan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni²⁾
(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




¹⁾ 2020- yil 1-yanvar holatiga ko'ra, tumanlar (shaharlar) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari ma'lumotlari asosida jamlangan.

²⁾ Doimiy aholi soni 2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra shakllantirilgan


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning tumanlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Nukus shahrida (33,6 %), To'rtko'l (11,0 %), Beruniy (7,3 %), Amudaryo (6,5 %), Nukus (5,5 %), Qo'ng'iro't (5,4 %), Xo'jayli (5,0 %), Ellikqal'a (4,1 %), Chimboy (4,0 %), Qorao'zak (3,2 %), Kegeyli (3,0 %), Mo'ynoq (3,0 %), Taxiatosh (2,5 %), Shumanay (1,6 %), Qonliko'l (1,6 %), Bo'zatov (1,5 %) va Taxtako'pir (1,2 %) tumanlari hissasiga tegishli.


Tumanlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar
qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi
(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan tijorat korxonalari tumanlar bo'yicha soni

(2021- yilning yanvar oylarida, birlikda)





2021- yilning yanvar oyida, yangi tashkil etilgan tijorat korxonalar tumanlar kesimida taqsimlanganda Nukus shahrida (25,5 %), To'rtko'l (10,6 %), Ellikqal'a (9,7 %), Nukus (8,1%), Xo'jayli (7,5%), Beruniy (6,8%) dan, Amudaryo (5,3 %), Chimboy (4,7 %), Taxiato'sh va Bo'zatov tumanida (4,1 %), Qo'ng'iro't (3,7 %), Mo'ynoq (2,8 %), Kegeyli (2,5 %), Qonliko'l (1,6 %), Shumanay va Qorao'zak (1,2 %) dan, Taxtako'pir (0,6 %) ulushlarini qayd etadi.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar oylarida, birlikda)

O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish
bo'limi
Tel.: 61 224-92-09**